



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026 - yil “23”-fevral

72-son

Toshkent shahri

**Oliy ta’lim tashkilotlarida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda
“Informatika va axborot texnologiyalari” fanlari bo‘yicha Respublika fan
olimpiadalarini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 12-avgustdagi PQ–4805-son, “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-oktabrdagi PQ–4851-son hamda “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-martdagi PQ–5032-son qarorlariga muvofiq oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan Respublika fan olimpiadalarini o‘tkazish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika”, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan Respublika fan olimpiadalarini (keyingi o‘rinlarda – Olimpiadalar)ni o‘tkazish bo‘yicha Samarqand davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Shahrizabz davlat pedagogika instituti hamda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining takliflariga rozilik berilsin.

2. Olimpiadalar 2025/2026-o‘quv yilidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida 2026-yilning 20-mayiga qadar o‘tkazilsin.

3. Quyidagilar:

oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda “Informatika va axborot

texnologiyalari” fanlaridan Olimpiadalarni o‘tkazish bo‘yicha respublika Tashkiliy qo‘mitasi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan Olimpiadalarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom **2-ilovaga** muvofiq;

2025/2026-o‘quv yilida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan Olimpiadalarni o‘tkazish bo‘yicha mas‘ul oliy ta’lim tashkilotlarining ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlari:

professor-o‘qituvchilar va talabalarni Olimpiadalarni o‘tkazish tartibi va mazmun-mohiyati bilan tanishtirsin hamda rasmiy veb-saytlarida e‘lon bersin;

joriy yilning 15-apreliga qadar Olimpiadalarning oliy ta’lim tashkilotida saralash bosqichlarini o‘tkazsin;

joriy yilning 30-apreliga qadar oliy ta’lim tashkiloti bosqichida g‘olib bo‘lgan **3 nafargacha** talabaning respublika bosqichida ishtiroki bo‘yicha Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markaziga rasmiy ma‘lumot bersin;

mazkur buyruqning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan, Olimpiadalar o‘tkaziladigan oliy ta’lim tashkilotlariga ishtirokchilarning xavfsizlik qoidalariga rioya etgan holda kelib-ketishlari uchun shaxsan mas‘ul etib belgilansin;

Olimpiadalarda g‘olib bo‘lgan talabalar va ularning murabbiylarini munosib moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan diplomlarni topshirish tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etsin;

Olimpiadalarda topshiriqlar bazasini shakllantirish jarayonlariga jalb etilgan professor-o‘qituvchilarni o‘rnatilgan tartibda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan bir oylik maoshi miqdorida (*ustama va qo‘shimchalarni hisobga olgan holda*) moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin.

5. Olimpiadalarni o‘tkazishga mas‘ul oliy ta’lim tashkilotlari **Samarqand davlat universiteti** (R. Xalmuradov), **Namangan davlat universiteti** (A. Kirgizbayev), **Shahrisabz davlat pedagogika instituti** (M. Saidov) hamda **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali** (Z. Karshiyev):

Olimpiadalarni o‘tkazish bo‘yicha rektor (filial direktori) buyrug‘i bilan rektor (filial direktori) raisligida malakali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislardan iborat oliy ta’lim muassasasining Tashkiliy qo‘mitasi, hakamlar hay‘ati hamda apellyatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlasin;

yozma ish va amaliy bilimlarni baholash uchun ishtirokchilarning sonidan kelib chiqib, auditoriya (kamida 100 ta o‘rin) va laboratoriya xonalarini tayyorlasin; zarurat bo‘lganda, ishtirokchilarni yotoq joy bilan ta‘minlash choralari ko‘rsin;

Olimpiadalarni o‘tkazishda hissa qo‘shgan barcha xodimlarni munosib rag‘batlantirish choralari ko‘rsin;

Olimpiadalarni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar oliy ta‘lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanishini inobatga olsin.

6. Olimpiadalarni o‘tkazishga mas‘ul oliy ta‘lim tashkilotlarining Tashkiliy qo‘mitasi:

Olimpiadalar yakunlangandan so‘ng **bir kun muddatda** hakamlar hay‘atining xulosasi asosida bayonnoma tuzsin va g‘oliblar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni rasmiy tarzda Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markaziga taqdim etsin;

Olimpiadalarni o‘tkazish, baholash va apellyatsiya jarayonlarini video kuzatuv nazoratida tashkil etish choralari ko‘rsin.

7. Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (A. Xoliqov):

Markaz saytida Olimpiadalarni o‘tkazish tartibi bo‘yicha ma‘lumotlarni e‘lon qilsin;

Olimpiadalarni o‘tkazish jarayonlarini muvofiqlashtirib borsin;

Olimpiadalarning yakuniy natijalariga ko‘ra, g‘oliblar to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlarni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta‘lim sifatini ta‘minlash departamentiga taqdim etsin.

8. Oliy ta‘lim tashkilotlari departamenti (A. Mamanazarov)

Olimpiadalarda I, II va III o‘rinlarni egallagan talabalarning oliy ta‘lim tashkilotlarining tegishli yo‘nalishlari bo‘yicha magistratura mutaxassisligiga o‘qishga imtiyozli qabul qilinishi yuzasidan o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasiga taklif kiritin.

9. Ishlar boshqaruvchisi (Sh. Isamuhametov) Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J. Xalilov) bilan birgalikda Olimpiadalarning yakunlari bo‘yicha g‘oliblarga vazirlikning tegishli diplomlarini (I, II, III o‘rinlar uchun) oliy ta‘lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tayyorlasin.

10. **Axborot xizmatlari bo'limi** (N. Abduqunduzova) **Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi** (A. Xoliqov) bilan hamkorlikda olimpiadalarning boshlanish vaqti, o'tkazish jarayonlari va g'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilishini ta'minlasin.

11. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari S. Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiylikini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin



Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o'rtasida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan Respublika fan olimpiadalarini o'tkazish bo'yicha respublika Tashkiliy qo'mitasi
TARKIBI

1. S. Radjabov – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining birinchi o'rinbosari, *Tashkiliy qo'mita raisi*
2. A. Xoliqov – Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori, *Tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari*
3. A. Mamanazarov – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti boshlig'i
4. J. Xalilov – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
5. N. Abduqunduzova – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – matbuot kotibi
6. R. Xalmuradov – Samarqand davlat universiteti rektori
7. A. Kirgizbayev – Namangan davlat universiteti rektori
8. M. Saidov – Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori
9. Z. Karshiyev – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali direktori
10. Sh. Rasulov – Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, bo'lim boshlig'i, *Tashkiliy qo'mita kotibi*

Izoh: Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.



Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o'rtasida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan Respublika fan olimpiadalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari o'rtasida "Kimyo", "Biologiya", "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan Respublika fan olimpiadalarini (keyingi o'rinlarda – Olimpiadalar) tashkil etish, o'tkazish, ishtirok etish va olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Olimpiadalar jarayonlarini muvofiqlashtirib borishga Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) mas'ul hisoblanadi.

3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tegishli buyrug'iga asosan har bir fan bo'yicha Olimpiadalarni o'tkazishga mas'ul oliy ta'lim tashkilotlari belgilanadi.

4. Olimpiadalarni o'tkazishga mas'ul oliy ta'lim tashkiloti buyrug'i bilan tasdiqlangan Tashkiliy qo'mita Olimpiadalarning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkillashtiradi hamda Olimpiadalarning adolatli, shaffof o'tkazilishini ta'minlaydi.

5. Hakamlar hay'ati va Apellyatsiya komissiyasi a'zolari, auditoriya rahbari va nazoratchilari o'z ish joylari tomonidan moddiy rag'batlantiriladi. Mukofot va rag'batlantirish miqdori Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi.

2-bob. Olimpiadalarning maqsad va vazifalari

6. Olimpiadalarning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

talaba yoshlar orasidan kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli va qobiliyatli talabalarni aniqlash;
talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish;
tayanch kompetensiyalarni, kasbiy-ahamiyatli shaxs sifatlarini, egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llash motivatsiyasini shakllantirish;
iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va intellektual rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni kengaytirish.

7. Olimpiadalarning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli va qobiliyatli talabalarni saralash va qo'llab-quvvatlash hamda ularni rag'batlantirish tizimini yaratish;

iqtidorli yoshlarning olimpiadalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish va bilimlarini mustahkamlab borish, shuningdek, respublika miqyosida tengdoshlari orasida ilimga bo'lgan qiziqishni targ'ib etishni yanada kuchaytirish; mantiqiy fikrlash va ilmiy faoliyatga qiziqishlarini oshirish.

3-bob. Olimpiadalar o'tkaziladigan fanlar va o'tkazish tartibi

8. Olimpiadalar kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan **har yili 20-mayga qadar** o'tkaziladi.

9. Har bir fan bo'yicha aniq sanalar respublika Tashkiliy qo'mitasi tomonidan mazkur muddat doirasida belgilanadi.

10. Oliy ta'lim tashkilotlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha Olimpiadalar ishtirokchilari (talabalar va ularning murabbiylari) ro'yxatini Markazning rasmiy elektron pochta-siga taqdim etadi.

Ro'yxatdan o'tish boshlanishi haqida Vazirlikning va Markazning rasmiy sahifalarida e'lon beriladi. Ro'yxatdan o'tish jarayoni Olimpiadalarni o'tkazish sanasidan ikki kun oldin to'xtatiladi.

11. Olimpiadalarda O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining kimyo, biologiya, fizika hamda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlaridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi bosqich talabalari ishtirok etishlari mumkin.

12. Oliy ta'lim tashkilotlari topshiriqlar bazasining maxfiyligini ta'minlaydi.

13. Olimpiadalar o'zbek tilida o'tkaziladi.

14. Olimpiadalar 2 turda o'tkaziladi va umumiy 100 ballik tizimda baholanadi:

Olimpiadalarning baholash mezonlari hakamlar hay'ati tomonidan ishlab chiqiladi va Olimpiadalar boshlanishida e'lon qilinadi.

1-tur. Yozma ish – 50 ball.

1-tur 3 xil qiyinlik darajada mos ravishda 5 ballik ikkita, 8 ballik ikkita va 12 ballik ikkita savol va masalalardan iborat. Umumiy beriladigan vaqt – 4 soat.

Ishtirokchilar savol va masalalarni yozma ish shaklida videokuzatuv nazorati ostida topshiradi.

Ishtirokchilarning 1-tur bo'yicha olgan ballari to'g'risidagi ma'lumot yozma ishlar yakunlangandan so'ng, 4 soat ichida olimpiada o'tkazilayotgan oliy ta'lim tashkilotining rasmiy saytiga joylanadi.

1-turda kamida 35 ball to'plagan ishtirokchilar 2-turga o'tkaziladi.

2-tur. Amaliy qism – 50 ball.

1-turdan o'tgan ishtirokchilar kimyo, biologiya va fizika fanlari bo'yicha laboratoriya sinovlarini, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajaradi. Topshiriqni bajarishga 2 soat vaqt beriladi.

Amaliy qismda har bir fan bo'yicha 1 ta topshiriq beriladi. Topshiriqlarning to'g'ri va to'liq bajarilganligiga qarab 50 ballgacha baholanadi.

2-turda berilgan topshiriqlarni muddatidan oldin to'g'ri va aniq bajargan ishtirokchilarga ustunlik beriladi.

4-bob. Olimpiadalar g'oliblarini aniqlash tartibi

15. Olimpiadalar g'oliblari har bir fan bo'yicha alohida aniqlanadi. Ishtirokchilarning yakuniy natijasi 1- va 2-turda to'plagan ballari yig'indisi (100 ballik tizim) asosida belgilanadi.

16. Har bir fan bo'yicha ishtirokchilar yakuniy ballar ketma-ketligiga ko'ra yuqoridan pastga qarab reyting qilinadi hamda mos ravishda I, II va III o'rinlar belgilanadi.

17. Agar bir fan doirasida bir xil o'rin uchun ikki yoki undan ortiq ishtirokchining yakuniy bali teng kelib qolsa, g'olib quyidagi ketma-ketlikda aniqlanadi:

- a) birinchi navbatda 2-tur natijasi yuqori bo'lgan ishtirokchiga ustunlik beriladi;
- b) 2-tur natijalari ham teng bo'lsa, oliy ta'lim tashkilotining Tashkiliy qo'mitasi qarori bilan 3 nafar mutaxassisdan iborat Komissiya tuziladi;
- d) Komissiya tomonidan ishlab chiqilgan qo'shimcha sinov topshiriqlari asosida munosib nomzod aniqlanadi;
- e) qo'shimcha sinov jarayoni videokuzatuv nazoratida o'tkaziladi, jarayon to'liq yozib olinadi va natijalar bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

5-bob. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi

18. Ariza va shikoyatlar Olimpiadalar natijalari e'lon qilingandan so'ng, apellyatsiya komissiyasida yozma tarzda qabul qilinadi va shu kunning o'zida ko'rib chiqilib, natijalari bo'yicha murojaatchiga e'lon qilinadi.

19. Talabalar tomonidan topshiriqlarga bo'lgan e'tirozlar topshiriqlar bazasini ekspertizadan o'tkazishga mas'ul bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rib chiqiladi va apellyatsiya xulosasi tayyorlanib, Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

20. Kelib tushgan e'tirozlar o'rinli deb topilsa, oliy ta'lim tashkiloti Tashkiliy qo'mitasi qarori bilan baholash natijasi qayta ko'rib chiqiladi, zarur hollarda bayonnomaga tegishli o'zgartirish kiritiladi va asoslovchi hujjatlar respublika Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi.

6-bob. Olimpiadalar g'oliblarini rag'batlantirish tartibi

21. Olimpiadalar g'oliblarining oliy ta'lim tashkiloti tegishli yo'nalishlari bo'yicha magistratura mutaxassisligiga o'qishga imtiyozli qabul qilinishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taklif kiritiladi.

22. Olimpiadalar yakunlari bo'yicha g'oliblarga Vazirlikning tegishli diplomlari (I, II va III o'rinlar uchun) taqdim etiladi.

23. Olimpiadalarda g'olib bo'lgan har bir talabaga va ularning murabbiyiga quyidagi miqdorda pul mukofotlari beriladi:

1-o'rinni egallagan talabaga — bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari, ularning murabbiylariga bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari;

2-o'rinni egallagan talabaga — bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari, ularning murabbiylariga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari;

3-o'rinni egallagan talabaga — bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari, ularning murabbiylariga bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari.

24. Olimpiadalar g'oliblari va ularning murabbiylarini rag'batlantirish xarajatlari tegishli oliy ta'lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

7-bob. Olimpiadalarni yakunlash tartibi

25. Olimpiadalarning yakuniy natijalari yuzasidan respublika Tashkiliy qo'mitasining yig'ilishi o'tkaziladi hamda yakuniy bayon qabul qilinadi.

26. Qabul qilingan yakuniy bayon asosida g'oliblar to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar respublika Tashkiliy qo'mitasi kotibi tomonidan Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamentiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

27. Olimpiadalarni o'tkazish jarayonlari va yakuniy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlik va tegishli oliy ta'lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2026-yil 82-Fevraldagi
72-son buy'riga
3-ilova



**2025/2026-o'quv yilida “Kimyo”, “Biologiya”, “Fizika” hamda
“Informatika va axborot texnologiyalari” fanlaridan Respublika fan
olimpiadalarini o'tkazish bo'yicha mas'ul oliy ta'lim tashkilotlari
va Vazirlikdan biriktirilgan mas'ullar**

RO'YXATI

T/r	OTM nomi	Fan nomi	OTMning tashkiliy qo'mitasi raisi	Vazirlikdan biriktirilgan mas'ullar
1.	Samarqand davlat universiteti	Kimyo	Samarqand davlat universiteti rektori R. Xalmuradov	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi Sh. Kalonov
2.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	Biologiya	Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori M. Saidov	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi Sh. Murodullayev
3.	Namangan davlat universiteti	Fizika	Namangan davlat universiteti rektori A. Kirgizbayev	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i X. Karimov
4.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	Informatika va axborot texnologiyalari	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali direktori Z. Karshiyev	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i S. Gaziyeu

Izoh: Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish jarayonlariga qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.